



**O'ZBEKISTON FARMATSEVTIKA SANOATIDA YASHIL  
TEXNOLOGIYALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH VA JORIY  
ETISH**

***Jabbarova Parizoda Ilhomjon qizi,***

***Axmedov Behzod Xabibulla o'g'li***

*Samarqand davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O'zbekiston*

*[parizodajabbarova@gmail.com](mailto:parizodajabbarova@gmail.com)*

*+998904460373*

**Dolzarbligi:** Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ko'plab farmatsevtika tashkilotlari dorivor o'simliklarning faqat ayrim qismlaridan foydalanib, qolgan qismlarini yaroqsiz chiqindi sifatida tashlab yubormoqda. Bu holat, bir tomondan, atrof-muhitning ifloslanishiga va tabiiy resurslarning isrofgarchiligiga olib kelmoqda, ikkinchi tomondan esa chiqindilar hajmini oshirib, ekologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ayrim dorivor o'simlik turlarining populyatsiyasi kamayish xavfi ostida qolmoqda. Shu sababli dorivor o'simliklardan kompleks va oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur yondashuv farmatsevtika sanoatida yashil texnologiyalarni joriy etish va innovatsion ishlab chiqarish jarayonlarini yo'lga qo'yishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Maqsad:** Dorivor o'simliklardan olinadigan foydali moddalarning miqdorini oshirish bilan birga, tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar miqdorini kamaytirish. Xususan, itburun (*Rosa canina*) o'simligining nafaqat mevasi, balki boshqa vegetativ va generativ organlaridan ham samarali foydalanish orqali yangi farmatsevtik va parafarmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish. Shuningdek, kimyoviy dori vositalarining organizmga salbiy ta'sirini kamaytirish



maqsadida mahalliy dorivor o'simliklarga asoslangan tabiiy preparatlar ishlab chiqish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish ko'zda tutilgan.

**Usul va uslublar:** Itburunning gullaridan bug' distillatsiyasi (bug'da ajratish) usuli yordamida tabiiy moylar, ekstraktlar, damlamalar va aroma aralashmalar olinadi. O'simlik mevasidan esa infuzion usul orqali tayyorlangan damlama qon bosimini me'yorga keltirish, avitaminozni oldini olish va o't suyuqligi sintezini faollashtirishda qo'llanishi mumkin. Ushbu tajribalar natijasida yangi farmatsevtik hamda parafarmatsevtik preparatlar ishlab chiqish imkoniyatlari o'rganiladi.

**Natijalar:** Tadqiqot natijalariga ko'ra, farmatsevtika korxonalarida chiqindilar miqdori sezilarli darajada kamayadi, dorivor o'simliklarning organizmga bo'lgan foydali ta'siri yanada chuqur o'rganiladi. Mahalliy o'simliklardan oqilona foydalanish ekologik tozalikni ta'minlab, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Xomashyoning har bir qismi ilmiy tahlil qilinib, amaliyotda samarali qo'llash yo'llari aniqlanadi. Natijada tabiiy dori vositalarining aholida keng qo'llanilishiga zamin yaratiladi.

**Xulosa:** Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, dorivor o'simliklardan oqilona foydalanish nafaqat farmatsevtika sohasida, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Itburun o'simligi misolida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'simlikning faqat mevasi emas, balki boshqa qismlaridan ham samarali foydalanish mumkin. Bu esa chiqindilarni kamaytiradi, tabiiy resurslarni tejaydi va inson salomatligi uchun foydali tabiiy mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Umuman olganda, bunday yondashuv O'zbekiston farmatsevtika sanoatida yashil texnologiyalarni barqaror rivojlantirish hamda mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.



## Adabiyotlar

1. Sobirzhonovna B. N. et al. THE ROLE OF ASSORTMENT AND MERCHANDISING TO INCREASE SALES IN PHARMACY ORGANIZATIONS //AMERICAN JOURNAL
2. Sobirzhonovna B. N., Azamatovna U. F. DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL APPROACHES TO ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF PHARMACY ORGANIZATIONS //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 1. – С. 112-119.
3. Mavsuma O S. A., O'tkir B. TOG'JAMBIL O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYTALARI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 443-445.
4. Fayzullayevich D. S. et al. PHARMACOLOGICAL PROPERTIES OF LAGOXILUS //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2025. – Т. 3. – №. 2. – С. 620-622.
5. G'ulom qizi Samarkand O. M. et al. MORPHOFUNCTIONAL CHANGES IN THE STOMACH UNDER THE INFLUENCE OF FOOD DYES (E-171, E-173) AND THEIR CORRECTION //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 194-199.
6. Bazarova N. et al. Determination of the relationship between the polymorphic genes of metalloproteinases MMP9 (A-8202G) RS11697325 and the level of cystatin c in children with chronic nephritic syndrome //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 121. – С. 03011.
7. Azamatovna U. F., Sobirjonovna B. N. DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL APPROACHES TO ASSESSING THE



- COMPETITIVENESS OF PHARMACY ORGANIZATIONS: REGIONAL ASPECT //International Educators Conference. – 2025. – С. 123-129.
8. Sobirzhonovna B. N., Akbaralievna U. G. ANALYSIS OF WIDELY USED DRUGS AND THEIR BENEFITS IN THE TREATMENT OF BREAST CANCER IN SAMARQAND //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 1. – С. 105-111.
9. Sobirzhanovna B. N. New Aspects of Pathology and Norms of Matrix Metalloproteinases //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 34-37.
10. Aziz K., Burxon E., Azizkhanovna N. M. STANDARDIZATION OF IMMUNOMODULATORS, ALLERGENS AND ALLERGOIDS //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 3. – С. 156-159.
11. Hilola H., Zilola M., Azizkhanovna N. M. LOZENGE DOSAGE FORMS //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 3. – С. 127-130.
12. Sevaraxon A., Azizbek M., Azizkhanovna N. M. PERISHABLE AND NON-PERISHABLE MEDICINES AND QUALITY CONTROL //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 3. – С. 123-126.
13. Feride B., Abdumannon E., Azizkhanovna N. M. STANDARDIZATION AND QUALITY CONTROL OF EYE DROP DOSAGE FORMS //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 3. – С. 119-120.